



O'SMIRLARDA DESTRUKTIV XULQ KELIB CHIQUISHINING IJTIMOYIY –  
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Tojimatova Gavharoy G'ulomjonovna

*Farg'ona davlat universiteti, Psixologiya kafedrası o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Maqolada o'smirlik davrida destruktiv xulq kelib chiqishining ijtimoiy-psixologik sabablari o'rganilgan va destruktiv xulqli o'smirlarni o'rganuvchi psixologlarning ilmiy ishlaridagi umumiy psixologik va ijtimoiy xususiyatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** *Destruktiv xulq, xarakter aksentuatsiyasi, imitatsiya, deviant xulq, emansipatsiya.*

O'smirlik davrining asosiy o'ziga xosligi bolalikdan kattalikka o'tishidadir. Bu davr fiziologik rivojlanish va jinsiy etilishning keskin jadallashuvi davridir. Bu davrga usmirlar tomonidan shaxs salbiy xususiyatlarining namoyon bulishi va ularning almashinib turishi: goh muloqotga kirishuvchan, goh aksi, goh quvnoq, goho esa g'amgin va h.k.lar xarakterlidir. O'smirning asosiy maqsadi o'z-o'zini anglash va o'xshashlikni shakllantirish ( tengdoshlaridek bo'lish).

Destruktiv xulq ijtimoiy-psixologik muammo sifatida ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tibbiy omillardan ko'ra, ko'proq psixologik omillar, ya'ni o'smirlarning shaxsiy xususiyatlari, qadriyatlarini, ularning dunyoqarashi, e'tiqodi, hayotga bo'lgan munosabati, ular uchun hayotning mazmuni, o'z-o'zini baholash darajasi, o'ziga va atrofida qilargaga bo'lgan munosabatining xarakteri yotadi. Shuning uchun destruktiv xulq kabi noxush hodisaning sababini, avvalo, shu hodisani sodir etayotgan o'smir shaxsining o'zidan, uning ruhiy olamidani qidirish lozim. Salbiy holatlarning oldini olish, bartaraf etish uchun esa shunday holatlarga tushib qolishi mumkin bo'lgan o'smirlarning "ichki dunyosini", qadriyatlarini tizimini, u yashayotgan oila, ta'lim olayotgan maskan, jamoadagi psixologik muhitni yaxshilash zarur. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek, "Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi".

O'smirlik davrining asosiy o'ziga xosligi bolalikdan kattalikka o'tishidadir. Bu davr fiziologik rivojlanish va jinsiy etilishning keskin jadallashuvi davridir. Bu davrga usmirlar tomonidan shaxs salbiy xususiyatlarining namoyon bulishi va ularning almashinib turishi: goh muloqotga kirishuvchan, goh aksi, goh quvnoq, goho esa g'amgin va h.k.lar xarakterlidir. O'smirning asosiy maqsadi o'z-o'zini anglash va o'xshashlikni shakllantirish ( tengdoshlaridek bo'lish).

O'smirlikdan kattalikka o'tish hamma ham tekis kechavermaydi. Shunga ko'ra o'smirlikda shaxs shakllanishi 3 turga bo'linadi ( E. Shpranger). Birinchi tur uchun davrning ikkinchi marta dunyoga kelishdek jo'shkin, krizisli kechishi xosdir. Uning yakuni — yangi «Men»ning yuzaga kelishi. Ikkinchi tip uchun davrning sillik, kuchli asabiylashishlarsiz shaxs shakllanishi xosdir. Shaxs shakllanishining uchinchi turiga esa ongli va faol ravishda o'z-o'zini tarbiyalash, xavotir va inkirozlarni mustaqil engish



xosdir. Sh. Byuler jismoniy pubertat bilan bir qatorda psixik pubertatni hamda uning ichidagi 3 ta fazani ajratdi.

Birinchisi - bu psixik pubertatlikning arafasi bo'lib, 11-12 yoshli o'smirda quyidagi alohida belgilar paydo bo'ladi: beboshlik, urushqoqlik, o'smirlar o'yinlari unga qiziq ko'rinmaydi, undan kattaroq o'smirlarning o'yinlari esa tushunarsiz bo'ladi.

«Arafa» undan keyingi 11-13 yoshdagi qizlar va 14-16 yoshdagi o'g'il o'smirlarni o'z ichiga olgan salbiy (negativ) faza bilan almashinadi. Atrof muhitga o'tuvchi tez qo'zg'aluvchanlik va bezovta holat, noziktabiqlik, jismoniy va ruhiy darmonsizlik, o'zidan norozilik, kabilar bu davrga xos asosiy belgilardir. Shuning uchun ko'pchilik o'smirlarda o'ziga va atrofida qilargan bo'lgan nafratni va uning natijasi bo'lgan o'zini yolgiz, begona va boshqalar tomonidan tushunilmagan sezish kabi holatlarni uchratishimiz mumkin. Bu vaqtda o'smir asosan, qarama-qarshiliklarga, salbiy ta'sirlarga o'ta sezgir bo'lib qoladi, bunday vaziyatlar o'smirda yoki agressiv o'z-o'zini himoya qilishni yoki passiv melanxoliyani keltirib chiqaradi. Salbiy faza yakuni - jismoniy etilishning yakunlanish vaqtiga to'g'ri keladi.

Ijobiy (pozitiv) faza o'smirni muhitning ijobiy taraflariga (aspektlariga) ta'sirchan bo'lib qolishi bilan boshlanadi. Shaxslararo munosabatlar sohasida vujudga keladigan nizolar o'smir tomonidan emotsional affektiv tarzda qabul qilinadi, ular barkamol shaxs kamolotiga to'sqinlik qilib, o'smir hayotiy faoliyatning samarasizligiga sabab bo'ladi. [2.56-bet]

Bu yoshda jinsiy etilish natijasida o'smir organizmida va ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar ro'y beradi. Bu o'smirning qiziqishlar sohasini anchagina o'zgartiradi. Bunda qiziqishlar rivojining ikki xususiyatini ko'rishimiz mumkin: bir tomondan yangi qiziqishlar va mayllarning paydo bo'lishi (ijtimoiy hayotga, texnikaga, qahramonlik va sarguzashtlarga boy kitoblarni o'qishga; ko'pchilikda sportga qiziqish kuchayadi), ikkinchi tomondan — avval o'rnatilgan qiziqishlar tizimining yuqolishi (undagi negativizm, qarama-qarshi xarakter shundandir). L.S.Vigotskiyning yozishicha, aynan shu ikki xususiyatning uygunlashuvi bir qarashda g'alati faktni — qiziqishlar kamayishi yoki ba'zan umuman yo'qolishini xarakterlaydi. Bu vayron etuvchi faza davomida o'smir o'z o'smirligiga barham beradi, shuning uchun ham L. N. Tolstoy bu bosqichni «o'smirlik sahrosi» deb ataydi. Bu fazaga pessimistiklik, jamoa bilan aloqalarning buzilishi, o'smir orasidagi oldingi o'rnatilgan munosabatlarning uzilishi, shu bilan birga do'stona munosabatlar ham, yolgizlikka intilish, boshqa insonlarga bo'lgan munosabatlarning keskin o'zgarishi, jamiyat xulq-atvor qoidalariga buysunmaslik kabilar xosdir. Natijada ko'pchilik o'smir individual yo'nalishda namoyon bo'ladi. Shu bilan birgalikda individuallikning cho'qqisi o'rta yoshdagi o'smirlarga to'g'ri keladi, katta yoshdagi o'smirlarga kelganda esa uning nisbati kamaya boradi; o'zining manfaatlariga daxldor bo'lgan shaxslarning hayoti bilangina qiziqadilar.

O'smirlik davrining eng asosiy xususiyati bu ikkita rivojlanish: psixik va jismoniy ya'ni psixik va somatik jarayonlar intensivligi bilan xarakterlanadi. Aynan shu davrda tez toliqish, jismoniy zaiflik, turli kasalliklarga moyillik holatlarini kuzatish mumkin. Bularning barchasi psixosomatik o'zgarishlar hisoblanib, psixik va somatik jarayonlar o'zaro uzviy bog'liqligining natijasi sanaladi. Yaqqol namoyon bo'luvchi o'smir



xususiyatlarining aksariyati uning munosabatlari tizimida ko'rinadigan xarakter o'ziga xosliklari sanaladi. Bu o'ziga xosliklar psixologiyada "xarakter aksentuatsiyasi" deb ataluvchi xarakterning alohida shaklda namoyon bo'luvchi ko'rinishidan iboratdir.

Xarakter aksentuatsiyasi masalasi M.Kramer, E.Krechmer, K.Leongard, V.Kebrikov, P.B.Gannushkin, V.V.KovaIev, A.E.Lichko kabi ko'plab olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Xarakter aksentuatsiyasi-normaning psixopat bilan chegaradosh variantini bildiruvchi xarakter ayrim sifat va sifatlar to'plamining haddan tashqari namoyon bo'lishidir. Xarakter aksentuatsiyasi psixopatlarda ularga xos bo'lgan uchta belgining bir vaqtda namoyon bo'lmashligi bilan farqlanadi. Bu belgilar: vaqt mobaynida xarakterning stabilligi, hamma vaziyatlarda yoppasiga namoyon bo'lishi va ijtimoiy dezadeptatsiya ( ko'nika olmaslik). Xarakter aksentuatsiyasining ochiq va yashirin ( latent) shakllari mavjud bo'lib, oila tarbiyasi xususiyatlari, ijtimoiy muhit, kasbiy faoliyat, jismoniy salomatlik kabi muhim rol o'ynovchi omillar ta'sirida osongina bir-biriga o'tib turishi mumkin. Xarakter aksentuatsiyasi o'smirlik davrida shakllanib, vaqt o'tishi bilan silliqilanib, kompensatsiya qilinadi. Destruktiv xulq ko'rinishlarini namoyon bo'lishida o'smirlardagi xarakter aksentuatsiyasi muammosi bilan bog'liq bo'lishi mumkinligi tadqiqchilar tomonidan ta'kidlanadi.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, xarakterida bir qator aksentuatsiyalar oqibat natijasida deviant xulq-atvorning rivojlanishi uchun turtki bo'lishi mumkin. O'smirlik davridagi psixo- emotsional inqirozning juda kuchli ifodalanishi. Odatda ba'log'at yoshiga etmaganlarning fiziologik va psixologik rivojlanishida muayyan davrda juda kuchli va keskin ichki ziddiyatlar avj oladi. Bunday kuchli psixo-emotsional holatni har kim ham engilgina boshidan kechira olmaydi. Shu sababdan bunday davrda o'smirning hatti-harakatlarida keskinlik, jizzakilik, qo'pollik va juda tez xafa bo'lishlik kabi xususiyatlar kuzatiladi.[7.87 b]

Ular uchun antiijtimoiy axloq o'z-o'zini ifodalash, o'zining o'zligi va ulg'ayganligini namoyish qilish vositasi sifatida yuzaga chiqadi. [6. 304 b]

Destruktiv xulqli o'smirlar guruh ichidagi ular uchun referent, ya'ni ahamiyatli hisoblangan guruh a'zolarining muomala, xulq-atvor, munosabat me'yorlarini o'zlashtirishga moyil bo'ladi. Biroq destruktiv xulqli shaxs strukturasi o'z-o'zini yo'qotish qo'rquvi, birovni yaxshi ko'rmaslik, yakkalanish, ma'nosizlik, ojiz, g'azab va umidsizlik bilan bog'liq kechinmali psixik holatlar tashkil qiladi. Agar bunday shaxs o'ziga o'xshagan odamlar bilan guruhga birlashsa o'z shaxsiy vaziyatining chidab bo'lmashligini unutishi oson bo'ladi. Agar ular birgalikda jinoyat sodir qilishsa, bunday jinoyat odatda jamiyat vakillariga qaratilgan bo'ladi.

O'smirning jinoyatchiligini o'rgangan psixolog A.I.Dolgovaning ta'kidlashicha, huquqbuzarlik qilishdan avval o'smirni xulq-atvorida me'yordan keskin chekinishlar bo'lib o'tadi. Muallif deviant xulqli o'smirlar uchun xos bo'lgan 2 toifa me'yoriy chekinishlarni ajratib ko'rsatgan:

- zo'rma-zo'raki va xudbinona toifadagi o'smirlar o'zini kuchli, hozirjavob, tengdoshlariga yordamga shay qilib ko'rsatmoqchi bo'ladi. Ammo bunday toifa o'smirning haqiqat haqidagi xulosasi jinoyatchi xulosadir. Ular xarakterida xudbinlik, zolimlik, jismoniy kuchga ishonish, noan'anaviy guruhlarni yoqlash kabi elementlar



ustuvordir. Xudbinona toifalar uchun yakkalik, xudbinlik kabi buzilgan xususiyatlar xosdir. Barcha o'smirlar jinoyatchilar umuminsoniy qadriyatlarni, jamiyat foydasiga mehnat qilishni, ijodiy faoliyatni tushunmasliklari, qadrlamasliklari bilan xarakterlanadi. Ularning qiziqishi moddiy boylik to'plashga, «xohlaganidek yashashga», «sof vijdon» prinsiplariga yo'naltirilgan

Destruktiv xulqli o'smirlarni o'rganuvchi psixologlarning ilmiy ishlarida ularning umumiy psixologik va ijtimoiy xususiyatlari aniqlanadi. D.I.Feldshteynning fikricha, destruktiv xulqli o'smirlar ijtimoiy sust, tajovvuzkor, qiziqqon, qo'pol, «ko'z yosh» to'kishga moyil bo'lib, ko'plari aldoqchi, mas'uliyatsizligi bilan ajralib turadi. I.A.Semikashevaning izlanishlari bo'yicha bunday guruh qatnashchilari ota-onaga o'xshash xislatlarga ega bo'lib, alohida insonlarni emas, o'ziga mansub guruhni hurmat qiladi. Bunday o'smirlar o'z xarakterlariga mas'uliyat sezmay, omma orasida hamma qatori harakatlanadi. S.A.Kulakovning ta'kidlashicha, bunday xulqli o'smirlar psixoterapevtlarning mijozidir, ularga aniq diagnostika qo'yilmagandiru, ammo ularning ko'pgina xislatlari me'yoriy jihatdan buzilgan. N.Yu. Maksimovning tadqiqotlaridan shu narsa aniqlandiki, og'ir tarbiyali o'smirlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarida salbiy holatlarga olib keluvchi quyidagi ichki sabablar ham bor ekan, jumladan: sinfdoshlar bilan mulqotning qiyin olib borilishi, xulq-atvor me'yorlarining shakllanmaganligi, ijtimoiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalarining qadrini tushunmasligi, inkor etish, o'zi atrof olamni bir butun deb tasavvur etaolmasligi, pedagoglarning talab va takliflarini inobatga olmaslik, o'z-o'ziga o'ta baland baho berish, ota-ona, o'qituvchi bilan kelishmaslik oqibatida ijtimoiy to'g'ri rivojlanmaslik. A.E. Lichkoning aytishicha, o'smirlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shu yosh uchun xos bo'lgan quyidagi xossalr bilan bog'liq:

1. Tengdoshlari bilan birgalikda guruhlarga ajralish. Vaqt o'tgan sari o'zlariga zarar bo'luvchi mojaro va sarguzashtlarga o'ralashib qolishlari. Achinarlisi, bekorchi o'smirlar bo'sh qolib, kayfiyatni ko'tarish uchun spirtli ichimliklarni iste'mol qilishi. O'smirlar ba'zilari qiziquvchanlikdan

«kattalardek bo'lish», boshqalari esa qolganlaridan qolib ketmasligi uchun ham ichishga ro'ju qo'yadilar. Ular nafaqat o'g'il bolalar, balki qizlar hambo'ladi.

2. Imitatsiya (o'xshatish) bu doimo kimgadir taqlid qilishdir. Bunday o'smirlar o'z tengdoshlari yoxud kattalarning xatti-harakatini takrorlaydilar. Atrofdagilardan birortasi spirtli ichimlik, giyohvand modda iste'mol qilsa, unga taqlid qiluvchilar ko'payadi. Ko'pgina o'smirlar o'ziga — namuna qilib kino qahramonini, aktyorlar, sozandalarni tanlaydilar va ularga taqlid qiladilar. Agarda taqlid qilinayotgan qahramon salbiy qahramon bo'lsa, unda ota-ona va pedagoglar turli noxushliklarga tayyor turishlari darkor. Ayniqsa, namuna uchun tanlangan inson real shaxs bo'lsa — yu, u ichkilikboz, giyohvand, jinoyatchi bo'lsa, undan juda katta kulfatlarni kutish mumkin, chunonchi, ko'pgina giyohvandlar, katta pul kerakligidan turli jinoyatlarga o'ralashib qolishadi.

3. Inkor reaksiyasi (qarama-qarshi tuyg'u). O'smirlar uchun xos bo'lgan tuyg'u. Xulqning qarama-qarshi xususiyatlari yaqinlarining dilsiyohligi, shaxsiyatni hafa qilishi, talablarning bajarilishida namoyon bo'ladi. Qarama-qarshi ruhdagi harakatlar ko'pincha ota-ona, kattalarga qaratilgan bo'ladi. Oilada muammoli vaziyat yuzaga kelganda, bolaning ichki va tashqi meni kichik yoki bo'rttirilgan huquqbuzarliklar bilan namoyon bo'ladi.



Bunday isyonkorlik ruhidagi harakatlarga ota-onalarning bolaga nisbatan loqaydligi, shaxs sifatida uni hurmat qilmasligi, qiziqishlariga to'sqinlik qilishi sabab bo'ladi. Ota-onaning bolasiga qo'ygan o'ta yuqori talablari, uni vunderkind — o'ta yuqori cho'qqilarni egallovchi shaxs qilishdek orzulari ham sababi bo'ladi. Dushmanlik hissini berkitib, o'smir kattalarga bo'lgan norozilik, xafaligini, undan ruhan begonasirashini namoyon qiladi. U o'ziga do'stlarni tashqaridan izlay boshlaydi va ko'pincha ichuvchi, chekuvchi to'daga kirib qoladi.

4. Rivojlanish tuyg'usi (emansipatsiya) - o'smirning o'z erkinligi, mustaqilligi uchun kurashi. U kattalar nazoratidan tezroq ozod bo'lishni xohlaydi. Uni qancha nazorat qilishsa, u shuncha erkinlikka talpinadi. Kattalarga u ataylab mustaqil harakatlarini namoyon qiladi. Ota-ona yoxud o'qituvchi unga biron harakatni majburiy singdirmasa, balki u o'zi ham ixtiyoriy ravishda shu harakatni bajargan bo'lar edi. Bu o'smirning qaysarligi bilan bog'liq. Ruhan sog'lom o'smirlardan o'ta qaysarlik xislatlari vaqti bilan o'tadi. Agarda kattalar o'ta shafqatsizlik va so'zsiz bo'ysunishni so'rashsa, unda o'smirlar o'ta keskin xarakter namoyon qiladilar. Eng xavotirga soladigani shuki, o'smirlarning xatti-harakati bunday holatlarda uydan qochish va daydichilik bilan tugallanadi.

5. Rad etish tuyg'usi - bu o'yinlarga, ovqat eyishga, uy ishlari, jamoat ishlariga qo'shilishini inkor etish tuyg'usi. Bunday voqelikda ota-onalar o'smirlarning ba'zilariga ma'lum bir tengdoshlari bilan muloqot qilishni rad etadilar. Ota-ona o'z farzandini ichuvchi, chekuvchi tengdoshlaridan himoya qilish maqsadida boshqa maktabga, boshqa hududga ko'chirishga ham majbur bo'ladi, natijada o'smir o'z ota-onasini tengdoshlaridan ajratganligida ayblab, ulardan arazlaydi.

O'smirning fikr va qiziqishlarini jamoaning qo'llab-quvvatlamasligi yoki beparvoligi uni 12 qonunbuzarlikka undaydi va xulq og'ishining kelib chiqishi uchun imkoniyat yaratadi. Natijada o'smir uchun kelajak rejalarining poymol bo'lish xavfi tug'iladi. O'qishdan va jamoadan yuz o'g'irgan o'smir o'z kelajagini, orzuumidlarini maktab va jamoa faoliyatiga bog'lashdan ko'ra, yangi ulfatlari bilan aloqa qilishni afzal ko'radi va boshqa kishilardan najot izlaydi. Natijada o'smir nosog'lom xulqli bolalar to'dasiga tushib qoladi va ular xulq atvoriga xos bo'lgan xarakterga ega bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi". Toshkent: O'zbekiston, 2022 y. 22-b.
2. Немов Р.С. Общая психология: краткий курс. СПб. Питер, 2009.- 304с
3. Olimov. L , Nazarov. A. "Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi". Toshkent. Tafakkur avlodi. 2020 y. 259 b.
4. Психология . Словарь. Под общ ред. А.Б.Петровского, М.Г.Ярашевского, М: Политиздатб , 1990 г. 494-с.
5. Психология современного подростка Фельдштейн Д.И: Педагогика. 1987г.
6. Qodirov K.B. "Shaxs yo'nalganligini aniqlash", T, 1998. 56-6
7. Sharafutdinova. H.G O'smir psixologiyasi. Ilmiy risola. Termiz. 2017 y. 87-b